



MOLIYAVIY QO‘YILMALAR TAVSIFI, AUDITINING XUSUSIYATILARI.

Nabiyev Muzaffar Abdumalikovich – Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti, “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi katta o‘qituvchisi i.f.f.d (PhD)

Muhayyo To‘rayeva – Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti, “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi asissenti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif Moliyaviy qo‘yilmalar tavsifi, auditining xususiyati, maqsadi va vazifalari xaqida fikr yuritgan. Jumladan, Mablag’larni qimmatli qog’ozlarga yo‘naltirish o‘z tavsifiga ko‘ra yuqori tavakkalchilik faoliyat masalalari oolib berilgan.

Kalit so‘z: Moliyaviy, korxona, audit, qo‘yilma, maqsad, vazifa, mablag’, muddat, ko‘rsatkich, hisobot, faoliyat, bozor, buxgalter.

Ключевые слова: Финансы, предприятие, аудит, инвестиции, цель, задача, фонд, срок, показатель, отчет, деятельность, рынок, бухгалтер.

Key words: Financial, enterprise, audit, investment, goal, task, fund, term, indicator, report, activity, market, accountant.

Korxonaning vaqtincha bo‘sh to‘rgan pul mablag’laridan samarali foydalanish usullaridan biri – bu ularni qimmatli qog’ozlar sotib olishga yo‘naltirishdir. Mablag’larni qimmatli qog’ozlarga yo‘naltirish o‘z tavsifiga ko‘ra yuqori tavakkalchilik faoliyati bilan bog’liq bo‘lib, tavakkalchilik darajasini imkonli boricha pasaytirish maqsadida emitentning moliyaviy holatini va bozor kon’yunkturasini bilish fond birjasi ma’lumotlarini muntazam ravishda monitoring qilib turishni taqazo etadi.

Moliyaviy qo‘yilmalar inflyatsiya sharoitida pul mablag’lari qadrsizlanishining oldini olish, qo‘srimcha daromad olish va boshqa korxona faoliyati ustidan nazorat o‘rnatish maqsadida amalga oshiriladi.

Moliyaviy qo‘yilmalar buxgalteriya hisobotidagi «Uzoq muddatli moliyaviy qo‘yilmalar» va «Qisqa muddatli moliyaviy qo‘yilmalar» moddalari ko‘rsatkichlarining ishonchliligi va moliyaviy qo‘yilmalarni hisobga olish hamda soliqqa tortish bo‘yicha qo‘llanilayotgan uslubiyotning O‘zbekiston Respublikasida amal qilayotgan me’yoriy hujjalarga muvofiqligi to‘g’risida xulosa shakllantirish maqsadida auditorlik tekshiruvidan o‘tkaziladi.



Moliyaviy qo‘yilmalarni auditorlik tekshiruvidan o‘tkazishning maqsadi boshqa aktivlar tekshiruvidagi kabi quyidagilarni ta’minlashdan iborat:

- * **to‘liqli** - barcha moliyaviy qo‘yilmalarining buxgalteriya hisobi va hisobotida to‘liq aks ettirilishi, hisobga olimmay qolgan moliyaviy qo‘yilmalar yo‘qligi;
- * korxona tomonidan sotib olingan qimmatli qog’ozlar va berilgan qarzlarning barchasi buxgalteriya hisobi va hisobotida to‘liq aks ettirilishi;
- * moliyaviy qo‘yilmalar hisobga olinadigan sintetik schyotlar qoldig’i va oborotlarining tegishli analitik hisob schyotlari qoldiq va oborotlariga mos kelishi;
- * schyotlar bo‘yicha qoldiq va oborotlarning buxgalteriya hisobi registrlaridan Bosh daftarga va buxgalteriya hisobotlariga to‘liq hajmda o‘tkazilishi;
- * moliyaviy qo‘yilmalar kirimi va hisobdan o‘chirilish faktlarining barchasi buxgalteriya hisobi va hisobotida aks ettirilishi;
- * moliyaviy qo‘yilmalar harakatiga doir barcha muomalalarning buxgalteriya hisobida o‘z vaqtida ro‘yxatdan o‘tkazilishi;
- * **mavjudligi** - barcha moliyaviy qo‘yilmalar karxona uchun ahamiyatli bo‘lib, balans tuzish sanasiga mavjud va kelajakda daromad keltiradi;
- * moliyaviy qo‘yilmalar mavjudligi belgilangan tartibda o‘tkazilgan inventarizatsiya va zarur dastlabki hujjatlar bilan tasdiqlangan;
- * **huquq va majburiyatlar** - korxona moliyaviy qo‘yilmalar uchun tegishli huquqlarga ega va ushbu huquqlar bilan bog’liq xavf-xatar uchun mas’uldir:
- * buxgalteriya hisobida aks ettirilgan moliyaviy qo‘yilmalar (qimmatli qog’ozlar va berilgan qarzlar) korxonaga qonun asosida tegishlidir;
- * buxgalteriya balansida aks ettirilgan qimmatli qog’ozlar korxonaga mulkiy huquq asosida tegishli bo‘lib, tegishli huquq talablariga mos shartnomani amalga oshirish natijasida olgan hamda korxona qimmatli qog’ozlar olinganligini tasdiqlovchi barcha zarur guvohliklarga ega;
- * buxgalteriya hisobi schyotlaridagi barcha yozuvlar amaldagi qonunchilik va me’yoriy hujjatlar talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan. Isbotlovchi va dastlabki hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan;
- * moliyaviy qo‘yimalarga doir barcha muomalalar amaldagi qonunchilikka zid bo‘limgan munosabatlar sharoitidan kelib chiqadi;
- * moliyaviy qo‘yilmalar bilan bog’liq muomalalarni amalga oshirish belgilangan tartibda vakolatli shaxslar tomonidan ruxsat etilganligi;
- * **baholashlar** - moliviy qo‘yilmalar (qimmatli qog’ozlar) buxgalteriya hisobi va hisobotida me’yoriy hujjatlar talablariga muvofiq baholangan;
- * chet el valyutasidagi qimmatli qog’ozlarni so‘mda baholash amaldagi



qonunchilik talablariga muvofiq o‘tkazilgan;

* qimmatli qog’ozlarni sotib olish usuliga ko‘ra ularning haqiqiy qiymati me’yoriy hujjatlar talablariga muvofiq shakllantirilgan;

* qimmatli qog’ozlar qiymati buxgalteriya hisobotiga kiritish uchun me’yoriy hujjatlar talablariga muvofiq va to‘g’ri hisoblab chiqarilgan (bozor bahosi pasayishini hisobga olgan holda);

* qimmatli qog’ozlarni sotishdan olingan tushum buxgalteriya hisobida dastlabki hujjatlardagi ma’lumotlarga mos bahoda aks ettirilgan;

* **aniqligi** - moliyaviy qo‘yilmalarga doir xarajatlar buxgalteriya hisobi qoidalariga muvofiq hisobga olingan, buxgalteriya hisoboti ma’lumotlari sintetik hisob registrlaridagi yozuvlarga mos keladi:

* dastlabki hujjatlarda, buxgalteriya hisobi registrlarida, ma’lumotlarni buxgalteriya hisobotlariga o‘tkazishda ko‘rsatkichlarning arifmetik aniqligiga rioya qilingan;

* chet el valyutasida ifodalangan qimmatli qog’ozlarning so‘mdagi qiymatini aniqlashda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan belgilangan va muomala sodir bo‘lgan kunda amalda bo‘lgan chet el valyutasi kursidan foydalanilgan; buxgalteriya hisobotida haqiqiy ma’lumotlar asosida aniqlangan moliyaviy natijalar aks ettirilganligi;

* **hisob davrining cheklanganligi** - moliyaviy qo‘yilmalarni hisobga qabul qilish va hisobdan chiqarishga doir barcha muomalalar tegishli hisob davrida hisobga olingan;

* **taqdim qilish va bayon qilish** - barcha moliyaviy qo‘yilmalar to‘g’ri turkumlangan va buxgalteriya hisobotida mohiyati ochib berilgan;

* moliyaviy qo‘yilmalar turlari va qaytarish muddatlariga ko‘ra turkumlangan;

* moliyaviy qo‘yilmalarni sotish va qaytarish bilan bog’liq daromadlar va xarajatlar moliyaviy natijalar to‘g’risidagi hisobotda to‘g’ri turkumlangan;

* moliyaviy qo‘yilmalar to‘g’risidagi axborotlar buxgalteriya hisobotlariga beriladigan tushuntirishlarda ochib berilgan;

Tekshiriladigan masalalar bo‘yicha etarli dalillarga ega bo‘lish ko‘rsatilgan faktlarni mustaqil baholash, yo‘l qo‘yilgan xato - kamchiliklarni hamda amaldagi me’yoriy hujjatlar va buxgalteriya hisobi qoidalaridan chetga chiqishlarni aniqlashga imkon beradi.

Moliyaviy qo‘yilmalarni auditorlik tekshiruvidan o‘tkazish chog’ida hal etiladigan vazifalar.

| | |
|------------------------|---------------------------|
| Auditorning vazifalari | Tekshiriladigan masalalar |
|------------------------|---------------------------|



| | |
|--|---|
| 1. Moliyaviy qo‘yilmalarni hisobga olish va nazorat qilishning holatini tekshirish. | <p>Korxona aktivlarini moliyaviy qo‘yilmalar qatoriga olib borishning to‘g’riligi. Muomalalarni hujjatlashtirishni tekshirish. Moliyaviy qo‘yilmalarni baholashning to‘g’riligi. Moliyaviy qo‘yilmalarni inventarizatsiya qilish. Buxgalteriya hisoboti ko‘rsatkichlarining sintetik va analitik hisob ma’lumotlariga mosligi.</p> |
| 2. Moliyaviy qo‘yilmalar harakatini buxgalteriya hisobida aks ettirishga doir muomalalar sintetik hisobining to‘liqligi va to‘g’-riliqi hamda soliq qonun-chiligidagi rioya qilinishini tekshirish | <p>Moliyaviy qo‘yilmalar kirimi va hisobdan chiqarilishini sintetik hisob registrlarida aks ettirish. Qimmatli qog’ozlar analitik hisobini tashkil etish. Moliyaviy qo‘yilmalarni hisobdan chiqarishga doir muomalalar bo‘yicha soliq qonunchiligidagi rioya qilinishi. Qimmatli qog’ozlar qadrsizlanishining oldini olish maqsadida rezerv tashkil etishga doir muomalalarni aks ettirish. Qarz shartnomasi bo‘yicha berilgan mablag’lar hisobi.</p> |
| 3. Moliyaviy qo‘yimalarga doir daromadlarning to‘liq aks ettirilishi va ularning soliqqa tortilishini tekshirish | <p>Hisoblangan daromadlarni aks ettirish. Ushbu muomalalarni soliqqa tortishning to‘g’riliqini tekshirish.</p> |

Foydanilgan adabiyotlar:

- Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
- Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 103 b.
- Karimov A.A., Islomov F.R., Avloqulov A.Z. “Xalqaro audit”, Darslik. T. “IQTISOD-MOLIYA”, 2015. -348 b.



4. Tulaxodjayeva M.M. va boshqalar. “Audit”, Darslik. Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti, “DeHause Print”, 2011. - 583 b.
5. Fayziyev Sh.N., Dusmuratov R.D., Karimov A.A., Qo`ziyev I.N., Avlokulov A.Z. “Audit”, Darslik. T. IQTISOD-MOLIYA, 2015. -420 b.
6. Fayziyev SH., SHayakubov SH., YUldasheva S., Abraeva S. “Audit”, Uchebnoye posobiye. T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015. – 288 str.